

**INNOVATION TEXNOLOGIYALAR - ZAMON TALABI**

*Ilmiy rahbar: **Kamilova Anora***

Andijon davlat texnika instituti

“Iqtisodiyot” kafedrası o‘qituvchisi

Ne‘matjonov Asadbek

Andijon davlat texnika instituti

“Iqtisodiyot” yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada innovatsion texnologiyalarning zamonaviy iqtisodiyot rivojlanishidagi strategik ahamiyati chuqur tahlil qilinadi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsiyalar iqtisodiy o‘sish sur‘atlarini tezlashtirish, ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish, mehnat unumdorligini oshirish hamda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini kuchaytiruvchi asosiy omil sifatida maydonga chiqmoqda. Maqolada sanoat korxonalarida raqamli texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy samarasi, IT-infratuzilmaga investitsiyalar oqimi, innovatsion ekotizimni rivojlantirishning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta’siri yoritilgan. Shuningdek, O‘zbekiston iqtisodiyotida innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar, davlat qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari va ularning iqtisodiy natijalari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: innovatsion texnologiyalar, raqamli iqtisodiyot, iqtisodiy samaradorlik, investitsiya, texnologik modernizatsiya, raqobatbardoshlik.

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari iqtisodiyotni tubdan o‘zgartirmoqda. Jahon iqtisodiyotida kechayotgan keskin raqobat, bozorning tezkor o‘zgarishi, ishlab chiqarishning avtomatlashtirilishi, resurslardan samarali foydalanish talablari davlatlar va korxonalarni innovatsion texnologiyalarni joriy etishga majbur qilmoqda. Innovatsiya - bu nafaqat yangilik yaratish jarayoni, balki iqtisodiy samaradorlikni oshirish, korxona raqobatbardoshligini mustahkamlash va mamlakat iqtisodiy xavfsizligini



ta'minlashga xizmat qiladigan strategik omildir. Bugungi kunda innovatsion texnologiyalarsiz iqtisodiy rivojlanishni tasavvur qilish qiyin, chunki zamonaviy iqtisodiyotning asosiy drayveri aynan texnologik yangilanish hisoblanadi.

Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, innovatsion texnologiyalarni keng tatbiq etgan davlatlar iqtisodiy o'sish sur'atlarini sezilarli darajada rivojlantirgan. Masalan, AQSH, Janubiy Koreya, Yaponiya, Germaniya kabi rivojlangan mamlakatlarda ilmfan va innovatsiyalarga sarmoya kiritish iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga katta turtki bo'lmoqda. Ushbu davlatlar iqtisodiyotida yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushining ortib borishi, mehnat unumdorligining oshishi va eksport tarkibining diversifikatsiyalanishi innovatsion rivojlanishning yorqin misolidir. Shuning uchun ham innovatsion texnologiyalarni joriy etish bugungi kunda har bir mamlakat iqtisodiy strategiyasida ustuvor vazifa sifatida belgilanmoqda.

O'zbekiston ham so'nggi yillarda innovatsion rivojlanishga alohida e'tibor qaratmoqda. "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi, innovatsion infratuzilmani kengaytirish, texnoparklar tashkil etish, startup loyihalarni qo'llab-quvvatlash va ilmiy-tadqiqot institutlarini modernizatsiya qilish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshmoqda. Ushbu islohotlar milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va eksport salohiyatini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, sanoat korxonalarida raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish tizimlari, sun'iy intellekt yechimlari, IoT qurilmalari va sifat menejmentining yangi standartlari joriy etilayotgani iqtisodiyotning tarkibiy o'zgarishlarini jadallashtirmoqda.

Innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi korxonalarda mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, mahsulot tannarxini pasaytirish va bozor talabiga moslashuvchanlikni kuchaytirish imkonini beradi. Shu bilan birga, texnologik yangilanish korxonalarning raqamlashtirilgan boshqaruv tizimlarini rivojlantirishga, resurslardan tejamkor foydalanishga va yangi bozor segmentlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi. Hozirgi sharoitda innovatsiya iqtisodiy xavf-xatarlarni kamaytirishning ham muhim vositasiga aylanmoqda, chunki bozordagi o'zgarishlarga tez moslasha olgan



korxonalar ustunlikka ega bo'ladi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, innovatsion texnologiyalarni joriy etish faqat texnik jarayon emas, balki iqtisodiy zaruratdir. Ular iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, ichki bozorni rivojlantirish, chet el investitsiyalarini jalb qilish, eksportni ko'paytirish va fan-texnika taraqqiyotini qo'llab-quvvatlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Innovatsiyalar iqtisodiyotga yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar yaratish imkonini berib, mamlakatning xalqaro maydondagi iqtisodiy mavqeini mustahkamlaydi.

Adabiyotlar tahlili. Innovatsion texnologiyalar, raqamli iqtisodiyot va iqtisodiy modernizatsiya jarayonlari bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar mazkur mavzuning dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi. So'nggi yillarda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida raqamlashtirish jarayonlari kuchaygani, innovatsiyalarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish zarurati ortgani adabiyotlarning asosiy g'oyasini tashkil etadi.

Avvalo, Anora Kamilova va Egamberdiyev Shavkatbekning "Innovative Economy and Digital Transformation: New Opportunities and Challenges" nomli ilmiy maqolasida innovatsion iqtisodiyotning shakllanishi, raqamli transformatsiyaning iqtisodiy o'sishga ta'siri va bu jarayonda yuzaga kelayotgan yangi imkoniyatlar keng tahlil qilingan [1]. Mualliflar raqamli texnologiyalarni keng joriy etish mamlakatlarning raqobatbardoshligini oshirishi, iqtisodiy samaradorlikni kuchaytirishi va mehnat bozorida yangi professionallar paydo bo'lishiga sabab bo'lishini ta'kidlaydilar. Mazkur asar innovatsion texnologiyalarning iqtisodiy tizimga ta'sirini chuqur o'rgangan manbalardan biridir. Shuningdek, Kobulov I. va Egamberdiyev Sh.ning "Digital Economy and Labor Market" maqolasida raqamli iqtisodiyotning mehnat bozoriga ko'rsatgan bevosita ta'siri o'rganilgan [2]. Tadqiqot mualliflari yangi texnologiyalar natijasida paydo bo'layotgan yangi kasblar, masofaviy mehnat shakllari va avtomatlashtirilgan jarayonlarning mehnat unumdorligiga ta'sirini yoritadi. Ularning fikricha, innovatsion texnologiyalar korxonalarda mehnat samaradorligini oshirish, ish o'rinlarini optimallashtirish va iqtisodiy faoliyatning yangi yo'nalishlarini yaratishga xizmat qiladi. Bu qarashlar



innovatsion texnologiyalarning iqtisodiy tuzilmadagi o'rnini asoslashda muhim ilmiy dalil vazifasini bajaradi.

Egamberdiyev Shavkatbekning "The Role of Strategically Important Sectors in the National Economy" maqolasida milliy iqtisodiyotning tayanch tarmoqlarini modernizatsiya qilishda innovatsion yondashuvlarning roli tahlil qilingan [3]. Muallif innovatsion texnologiyalar sanoat, energetika, transport kabi strategik sohalarni rivojlantirishda asosiy omil ekanini ta'kidlab, ushbu jarayonning iqtisodiy barqarorlikka ko'rsatgan ta'sirini ko'rsatadi. Bu tadqiqot innovatsiyalarning tarmoq kesimidagi amaliy ahamiyatini ochib beradi. Bundan tashqari, Shavkatbekning yana bir maqolasi "Global Trends in the Green Economy" maqolasida yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonlari, ekologik innovatsiyalar va energiya tejamkor texnologiyalarning jahon miqyosidagi rivojlanishi yoritilgan [4]. Ekologik innovatsiyalar iqtisodiy samaradorlik va barqaror rivojlanishning muhim jihatlaridan biri sifatida ko'rsatilgan bo'lib, bu mavzuning innovatsion texnologiyalar bilan uzviy bog'liqligini oshiradi.

B.Abdullaev va X.Ergashev ning "Innovatsion fikrlashni ishlab chiqarishni boshqarishda qo'llash" asarlarida innovatsion menejment va ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilishga doir nazariy yondashuvlar bayon qilingan [5]. Mualliflar innovatsion fikrlash ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda va boshqaruv tizimini optimallashtirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ta'kidlaydilar. Ushbu adabiyot innovatsion texnologiyalarning boshqaruvdagi rolini asoslab beradi.

Baxodir Abdullayevning "Innovatsiyalarni boshqarish haqida umumiy tushunchalar" maqolasida innovatsion boshqaruvning nazariy asoslari, texnologik yangilanishlarni joriy etish mexanizmlari va ularning iqtisodiy natijalari yoritilgan [6]. Tadqiqot innovatsion loyihalarni samarali boshqarish iqtisodiyotning har bir tarmog'ida modernizatsiyani jadallashtirishi mumkinligini ta'kidlaydi. Shuningdek, Abdullayev B.ning "O'zbekiston Respublikasining innovatsion ko'rsatkichlarini korrelyatsion-regression tahlili" asarida O'zbekistonning innovatsion faoliyat darajasi statistik modellar orqali o'rganilgan [7]. Keltirilgan tahlillar innovatsion



rivojlanish ko'rsatkichlari bilan iqtisodiy o'sish o'rtasida bevosita musbat bog'liqlik mavjudligini isbotlaydi. Bu ilmiy dalillar innovatsion texnologiyalar iqtisodiy samaradorlikni oshirishning asosiy omili ekanini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, innovatsion texnologiyalar iqtisodiy rivojlanishning ajralmas tarkibiy qismiga aylangan. Manbalar innovatsiyaning raqamli transformatsiya, mehnat bozori, sanoat modernizatsiyasi, yashil iqtisodiyot va davlat siyosati bilan uzviy bog'liqligini ochib beradi. Shu bilan birga, innovatsion texnologiyalarni joriy etish iqtisodiy barqarorlik, raqobatbardoshlik va samaradorlikni oshirish bo'yicha eng samarali vosita ekanini asoslab beradi.

Metodologiya. Ushbu maqolaning metodologik asosini innovatsion texnologiyalar, raqamli iqtisodiyot va iqtisodiy modernizatsiya jarayonlariga oid mavjud ilmiy nazariyalar, konsepsiyalar va ilg'or xorijiy hamda mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari tashkil etdi. Maqola amaliy tajribalar yoki empirik ma'lumotlarga tayanmagan bo'lib, asosan nazariy tahlil, ilmiy umumlashtirish, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv va mantiqiy tahlil metodlaridan foydalanildi.

Birinchidan, nazariy tahlil metodi orqali innovatsion texnologiyalar tushunchasi, ularning iqtisodiyotdagi o'rni, milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishdagi roli va ta'sir mexanizmlari ilmiy manbalar asosida o'rganildi. Innovatsion iqtisodiyot, raqamli transformatsiya, mehnat bozori, tarmoq modernizatsiyasi va yashil iqtisodiyotga oid konseptual qarashlar chuqur nazariy jihatdan tahlil qilindi.

Ikkinchidan, qiyosiy tahlil metodi asosida innovatsion texnologiyalarning rivojlangan davlatlar iqtisodiyotidagi qo'llanilishi hamda O'zbekiston sharoitidagi innovatsion jarayonlar o'rtasidagi farqlar va o'xshashliklar o'rganildi. Jahon tajribasi bilan milliy tajriba o'rtasida qiyosiy munosabatlar o'rnatilib, innovatsion siyosatning samarali yo'nalishlari aniqlab berildi.

Uchinchidan, maqolada tizimli yondashuv qo'llanilib, innovatsion texnologiyalar iqtisodiyotning turli tarmoqlariga kompleks ta'sir etuvchi omil sifatida baholandi. Bu yondashuv innovatsiyalarning mehnat unumdorligi, investitsiya oqimi, sanoat modernizatsiyasi, eksport salohiyati va



raqobatbardoshlikka bevosita ta'siri bo'yicha ilmiy xulosalar chiqarish imkonini berdi.

To'rtinchidan, ilmiy umumlashtirish metodi yordamida turli mualliflar tomonidan ilgari surilgan fikr-mulohazalar bir tizimga solindi, innovatsion iqtisodiyot bo'yicha mavjud ilmiy qarashlar umumlashtirildi va yagona nazariy konsepsiyaga birlashtirildi. Bu esa innovatsion texnologiyalarning iqtisodiy jarayonlardagi ahamiyatini yaxlit holda ochib berishga yordam berdi.

Beshinchidan, maqolada mantiqiy tahlil metodi qo'llanilib, innovatsiyalarning iqtisodiy samaradorlikka ta'sir mexanizmlari, ularning barqaror rivojlanishga qo'shadigan hissasi va korxonalar faoliyatidagi afzalliklari izchil mantiqiy izchilikda o'rganildi.

Muhokama. Izlanishlar jarayonida innovatsion texnologiyalarning zamonaviy iqtisodiy rivojlanishga ta'siri, ularning iqtisodiyot tarmoqlaridagi o'рни hamda raqamli transformatsiya jarayonlari bilan uzviy bog'liqligi nazariy jihatdan tahlil qilindi. O'tkazilgan nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, innovatsion texnologiyalar bugungi global iqtisodiyotning asosiy drayveri bo'lib, iqtisodiy barqarorlik va raqobatbardoshlikni ta'minlashda hal qiluvchi omilga aylangan.

Birinchidan, innovatsion texnologiyalarni joriy etish ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, resurslardan tejamkor foydalanish imkonini yaratadi va mahsulot tannarxini pasaytiradi. Nazariy manbalar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, texnologik modernizatsiya jarayoni korxonalarga mehnat unumdorligini oshirish, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va raqamlashtirish orqali iqtisodiy foyda keltiradi. Bu holat raqobat kuchaygan bozor sharoitida korxonalar barqarorligini ta'minlovchi asosiy omil sifatida qaraladi.

Ikkinchidan, raqamli transformatsiya innovatsion iqtisodiyotning ajralmas qismi bo'lib, internet texnologiyalari, sun'iy intellekt, IoT, Big Data, blokcheyn kabi zamonaviy yechimlar iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga kirib borayotgani kuzatildi. Ushbu jarayon mehnat bozori, ta'lim tizimi, moliya sektori va xizmat ko'rsatish sohalarini tubdan o'zgartirmoqda. Maqola doirasidagi nazariy manbalar raqamli texnologiyalar nafaqat ishlab chiqarish jarayonlarini, balki axborot



almashinuvi va boshqaruv tizimlarini ham innovatsion asosda qayta shakllantirayotganini ko'rsatadi.

Uchinchidan, O'zbekiston iqtisodiyotida innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo'yicha olib borilayotgan davlat siyosati iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtirishga xizmat qilmoqda. "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi, texnoparklar, innovatsion klasterlar, startaplarni qo'llab-quvvatlash dasturlari kabi tashabbuslar milliy innovatsion ekotizimni shakllantirishda muhim rol o'ynayotgani kuzatildi. Nazariy tahlillar ushbu siyosatning uzoq muddatda iqtisodiy barqarorlik, eksport salohiyati va xalqaro raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qilishini ko'rsatdi.

To'rtinchidan, innovatsion texnologiyalar mehnat bozorida yangi kasblar, yangi kompetensiyalar va yangi ish shakllarining yuzaga kelishiga sabab bo'layotgani aniqlangan. Raqamli iqtisodiyot jarayonlari natijasida an'anaviy kasblarning qisqarishi, o'rniga esa IT, logistika, dizayn, sun'iy intellekt, kiberxavfsizlik va analitika kabi yuqori qo'shilgan qiymatga ega sohalarning kengayib borayotgani haqida nazariy manbalar asosida xulosalar qilindi.

Beshinchidan, yashil iqtisodiyotning global miqyosda rivojlanishi innovatsion texnologiyalar bilan bevosita bog'liq bo'lib, energiya tejankor texnologiyalar, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va ekologik toza ishlab chiqarish tizimlarini joriy etish iqtisodiy samaradorlikni oshirishda muhim omil ekanini ko'rsatdi. Bu esa innovatsion texnologiyalar faqat iqtisodiy o'sish emas, balki ekologik barqarorlikni ta'minlashda ham muhim rol o'ynashini tasdiqlaydi.

Olingan nazariy natijalar shuni ko'rsatadiki, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish - bu zamon talabi bo'lib, u iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini modernizatsiya qilish, bilimga asoslangan iqtisodiyotga o'tish, eksportni ko'paytirish va mamlakatning global maydondagi mavqeini mustahkamlash uchun zarur strategik yo'nalish hisoblanadi.

Natija va takliflar. Izlanish natijalari shuni ko'rsatdiki, innovatsion texnologiyalar zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning asosiy drayveri hisoblanadi. Nazariy tahlillar asosida aniqlanishicha, innovatsion texnologiyalar ishlab chiqarish



jarayonlarini avtomatlashtirish, resurslardan tejankor foydalanish va mahsulot tannarxini kamaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ular mehnat unumdorligini oshiradi va korxonalarning raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Raqamli transformatsiya jarayonlari esa iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga ta'sir etadi; internet texnologiyalari, sun'iy intellekt, IoT va Big Data kabi yechimlar ishlab chiqarish, moliya, transport, ta'lim va xizmat ko'rsatish sohalarini tubdan o'zgartirmoqda.

O'zbekiston sharoitida amalga oshirilayotgan "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi, texnoparklar va startaplarni qo'llab-quvvatlash dasturlari milliy innovatsion ekotizimni shakllantirishga yordam bermoqda. Shu asosda milliy siyosat innovatsion jarayonlarni rivojlantirish, iqtisodiy o'sish sur'atlarini oshirish va eksport salohiyatini kuchaytirishga xizmat qiladi. Innovatsion texnologiyalar mehnat bozorida yangi kasblar va kompetensiyalar paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Raqamli iqtisodiyot natijasida an'anaviy kasblar modernizatsiya qilinadi, yangi ish shakllari va professional yo'nalishlar kengayadi. Shuningdek, yashil iqtisodiyot va ekologik barqarorlik masalalari innovatsion texnologiyalar bilan uzviy bog'liq ekanligi aniqlangan. Energiyani tejovchi va ekologik toza ishlab chiqarish tizimlari joriy etilishi iqtisodiy samaradorlikni oshiradi va barqaror rivojlanishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish mamlakatning iqtisodiy barqarorligi, raqobatbardoshligi va global maydondagi mavqeini oshirish uchun zarur ekanini ko'rsatadi.

Mazkur natijalar asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi. Birinchidan, korxonalarda avtomatlashtirish, raqamlashtirish va sun'iy intellekt yechimlarini tatbiq etish bo'yicha davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish lozim. Ikkinchidan, milliy innovatsion siyosatni mustahkamlash, texnoparklar va innovatsion klasterlarni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada samarali tashkil etish tavsiya etiladi. Uchinchidan, mehnat bozorini innovatsiyaga moslashtirish, yangi kasblar va kompetensiyalarni shakllantirish bo'yicha oliy ta'lim va malaka oshirish dasturlarini kengaytirish zarur. To'rtinchidan, sanoat va yashil iqtisodiyotni



uyg'unlashtirish, energiya tejankor va ekologik innovatsiyalarni tatbiq etish orqali barqaror iqtisodiy rivojlanishga erishish mumkin. Beshinchidan, nazariy tadqiqotlarni amaliyotga bog'lash, ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy ta'lim muassasalari va korxonalar o'rtasida integratsiyalashgan tizim yaratish muhim hisoblanadi.

Umuman olganda, innovatsion texnologiyalarni nazariy jihatdan o'rganish natijalari ularning iqtisodiy rivojlanish, mehnat bozorini modernizatsiya qilish va barqaror taraqqiyotdagi strategik ahamiyatini tasdiqlaydi, shuningdek, milliy va korporativ darajada innovatsion siyosatni yanada samarali amalga oshirishga imkon beradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, innovatsion texnologiyalar zamonaviy iqtisodiyotning asosiy drayveri sifatida iqtisodiy barqarorlik, raqobatbardoshlik va mehnat unumdorligini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli transformatsiya va texnologik modernizatsiya jarayonlari iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga ta'sir etib, yangi kasblar va ish shakllarini shakllantirishga, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga va resurslardan tejankor foydalanishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Anora, Kamilova, and Egamberdiyev Shavkatbek. "INNOVATIVE ECONOMY AND DIGITAL TRANSFORMATION: NEW OPPORTUNITIES AND CHALLENGES." Лучшие интеллектуальные исследования 37.4 (2025): 175-180.
2. Kobulov, I., and Egamberdiyev Sh. "DIGITAL ECONOMY AND LABOR MARKET: NEW PROFESSIONS AND CAREER OPPORTUNITIES." Экономика и социум 2-1 (129) (2025): 303-305.
3. Shavkatbek, Egamberdiyev. "THE ROLE OF STRATEGICALLY IMPORTANT SECTORS IN THE NATIONAL ECONOMY." Modern education and development 19.3 (2025): 631-636.
4. Shavkatbek, Egamberdiyev. "GLOBAL TRENDS IN THE GREEN ECONOMY." Modern education and development 19.4 (2025): 26-30.



5. Абдуллаев Б., Эргашев Х. ИННОВАЦИОННОЕ МЫШЛЕНИЕ В УПРАВЛЕНИИ ПРОИЗВОДСТВАМИ //Инновационные технологии на транспорте: образование, наука, практика. – 2017. – С. 246-249.
6. Baxodir, Abdullayev. "INNOVATSIYALARNI BOSHQARISH HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHALAR." Management, Marketing and Finance 2.1 (2025): 130-138.
7. Abdullayev B. O 'zbekiston Respublikasining innovatsion ko'rsatkichlarini korrelyatsion regression taxlili //YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT. – 2024. – Т. 2. – №. 11.